

## **Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi**

Oliy ta’lim muassasasida kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

oliy ta’lim muassasasining qabul komissiyasi fan bo‘yicha imtihon komissiyasining raisligiga nomzodni o‘z vaqtida tasdiqlash uchun bo‘ysunishiga qarab tegishli vazirlik, idoraga taqdim etadi;

kasbiy (ijodiy) imtihonlar boshlanishidan bir oy oldin oliy ta’lim muassasasi rektorining buyrug‘i bilan tegishli fanlar bo‘yicha imtihonlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun 3 kishidan kam bo‘lmagan tarkibda tajribali, malakali va mas’uliyatli professor-o‘qituvchilardan shakllantirilgan fanlar bo‘yicha imtihon komissiyalari tashkil etiladi;

kasbiy (ijodiy) imtihon har bir guruhda, qoida tariqasida 2 nafar guruh nazoratchisi kuzatuvida, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan jadvalga qat’iy rioya etgan holda o‘tkaziladi;

kasbiy (ijodiy) imtihonlarga ajratiladigan vaqt imtihon dasturlariga muvofiq oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan belgilanadi.

Fan bo‘yicha imtihon komissiyasi tarkibiga sohaning yetuk mutaxassislari va boshqa oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari ushbu tashkilotlarning rahbarlari bilan kelishilgan holda kiritilishi mumkin.

Kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha imtihon dasturlari va har bir fan xususiyati hisobga olingan holda baholash mezonlari, shuningdek, tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga muvofiq keluvchi fan majmualari oliy ta’lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi hamda tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta’lim muassasasining qabul komissiyasi imtihonlar boshlanishidan bir oy oldin abituriyentlar e’tiboriga imtihon dasturlari, baholash mezonlari, maslahatlar va imtihonlar jadvalini ma’lum qiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar, tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxati va ularga muvofiq keluvchi 3 ta fan majmualarida to‘planishi mumkin bo‘lgan maksimal 189,0 balldan, har bir fanning o‘rniga qarab uning uchun ajratilgan eng ko‘p ballning 0 dan 100 foizgacha bo‘lgan oraliqda baholanadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar (sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim yo'nalishlari bundan mustasno) kollegial tartibda qabul qilinadi va baholanadi.

Bunda fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolarining har biri talabalikka da'vogarni alohida-alohida baholaydi va uning yakuniy bahosi fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan qo'yilgan baholarning o'rtacha qiymatiga teng bo'ladi.

Abituriyentlarning amaliy shaklda bajargan imtihon ishlarini tekshirish va baholash shifrlash orqali amalga oshiriladi.

Guruh nazoratchisi kasbiy (ijodiy) imtihon tugaganidan so'ng abituriyentlarning amaliy ishlarini qabul qilib olish, har bir amaliy ish va uning ushbu Nizomga [3-ilovada](#) namuna sifatida keltirilgan titul varag'iga identifikatsiya raqamlari (shifr)ni qo'yish hamda imtihon komissiyasi raisiga ushbu imtihon ishlarini tekshirishga berish uchun mas'ul hisoblanadi.

Amaliy imtihon ishlariga qo'yilgan shifrlarning maxfiyligini ta'minlashga guruh nazoratchisi shaxsan mas'ul hisoblanadi.

Amaliy imtihon ishlarini shifrlash va qayta tiklash hamda ularni tekshirish va baholash maxsus ajratilgan xonalarda amalga oshiriladi.

Amaliy imtihon ishlarini obyektiv tekshirish, baholash hamda abituriyent tomonidan to'plangan ballarni titul varag'ida aks ettirish uchun mas'uliyat fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi va a'zolari zimmasiga yuklanadi.

Amaliy imtihon ishlari qabul komissiyalarining maxsus xonalarida bir yil saqlanadi va ushbu muddat o'tganidan so'ng belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

Jadval bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarga (imtihon bosqichi yoki turiga) kelmagan abituriyentlar uchun qayta kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilmaydi va ular o'qishga qabul qilinmaydi.

Tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga muvofiq fanlar majmuasidagi har bir fan bo'yicha imtihon natijalari kasbiy (ijodiy) imtihon xususiyatiga qarab, imtihon o'tkazilganidan keyin 1 — 3 kun muddatda oliy ta'lim muassasasi rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasida kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda norozilik (apellatsiya) arizalarini ko'rib chiqish uchun sohaning yetuk mutaxassislari va boshqa oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilaridan iborat appellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellatsiya komissiyasi tarkibiga fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolarining kiritilishi taqiqlanadi.

Imtihonni qabul qilgan fan bo'yicha komissiya a'zosi apellatsiya jarayonida qatnashib, o'z fikrini bildirish huquqiga ega.

Norozilik (apellatsiya) arizalari imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellatsiya komissiyasi tomonidan bir kun muddatda ko'rib chiqiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari fanlar kesimida alohida imtihon qaydnomalariga kiritiladi.

Ushbu imtihon qaydnomalarining har biri fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi va oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi hamda muhrlanadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar yakunlanganidan so'ng imtihon qaydnomalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan bo'ysunishiga qarab tegishli vazirlik (idora) orqali har yili 15-avgustga qadar qaror qabul qilish uchun Davlat komissiyasiga taqdim etiladi.